

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISHNING AHAMIYATI

Masharipova Sevinch

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining
boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3-D kurs talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijodiy fikrlashga o‘rgatish hamda uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *kreativ, zamonaviy, integratsiyalash, ta’lim.*

Kreativlik so‘zni ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo‘llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkuridan voz kechish qobiliyatini ta’riflagan. Kreativlik (lot. creatio – yaratish, vujudga keltirish) – bu insonning noodatiy g‘oya, fikr bera olish, muammolarning takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an’anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo‘lgan qobiliyatidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim sohasida bir qancha ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, “2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident farmonida maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish kabi birqancha rejalarining amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi.

Hozirgi globallashuv sharoiti, istaymizmi-yo‘qmi, bizning ishlash va yashash tarzimizni o‘zgartirmoqda. Birinchidan, biz globallashish, ifloslanish, molivaviy inqirozlar yoki yangi epidemiyalar bo‘ladimi, butun dunyoga ta’sir qiladigan murakkab muammolarga tobora ko‘proq duch kelmoqdamiz. Ushbu muammolarni hal qilish bo‘yicha harakatlarni muofiqlashtirish uchun bizga ijodiy fikrlash va ijodiy g‘oyalalar kerak. Shaxsiy darajada globallashuv hayotning tobora tezlashib borayotgan sur’atini keltirib chiqaradi. Bizda juda ko‘p ma’lumot mavjud, ammo bugun o‘rgangan narsalarimiz ertaga osonlikcha eskirishi mumkin. Garchi tez o‘zgarishlar ham yangi imkoniyatlarni keltirsa-da, endi biz butun dunyo bo‘ylab iste’dodli odamlar bilan raqobatlashishimiz kerak. Ushbu muhitda muvaffaqiyat qozonish uchun bizga ishonchli qarorlar qabul qilishga va tezda yangi bilimlarni egallahsga yordam beradigan ijodiy fikrlash qobiliyatlarini kerak.

Ammo ijodiy fikrlash qibiliyatlarini deganda nimani tushunamiz? Asosan, bu ikki narsaga bog‘liq – tanqidiy fikrlash va ijodkorlik. Tanqidiy fikrlash aniq va oqilona fikrlashdir. Bu aniq va muntazam ravishda fikrlashni, boshqa narsalar qatorida mantiq va ilmiy fikrlash qoidalariiga rioya qilishni o‘z ichiga oladi. Ijodga kelsak, bu yangi va foydali g‘oyalarni taklif qilish, muqobil imkoniyatlarni yaratishdir.

Bolalarni aynan kichik sinflaridanoq, ya’ni boshlang‘ich sinfga qadam qo‘yishlari bilan ularda kreativ fikrlash qibiliyatlarini rivojlantirish ta’limning ustuvor vazifalaridan biri

hisoblanadi. Chunki bola maktabga kelganida uning fikrlash qobiliyati yuqori darajada shakllanmagan bo'lsa-da, lekin unda ijodkorlik qobiliyatlarining kichik unsurlari mavjud bo'ladi. Boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu - bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy tajribasi, psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligidadir. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ularni takomillashtirish zarur. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ qobiliyatları rag'batlantirilsa va samimiyl muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Xato qilishdan, muvaffaqiyatsizliklardan cho'chish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo'rqish hissi mavjud o'quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi.

To'g'ri, ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali o'quvchilar birdaniga qo'shiqchi, rassom yoki aktyor bo'lib qolmaydi. Ijodiy fikrlash ularda matematika yoki tabiiy fanlaridan standart yo'l bilan yecha olmayotgan misollarini boshqa usul bilan izlab ko'rishga undaydi, o'qish savodxonligi fanidan yod olishga qiynalayotgan materiallarni qandaydir kichik voqealar, sanalar orqali eslab qolishga yordam beradi. Inson ijodiy fikrlash orqali har qanday yechimi qiyin bo'lgan masalaga yechim topa oladi.

Muayyan omillar o'quvchilarda kreativlik sifatlari, malakalarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, pedagogik jarayonda o'qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari kerak. Quyidagi omillar o'quvchilarda kreativlikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi:

- O'z-o'zini tavakkaldan olib qochish;
- Fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- Shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- Boshqalarga tobe bo'lish;
- Har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

"Kreativlik" tushunchasi "ijod" tushunchasi bilan bog'liq. Ammo shunday bo'lsa-da "kreativlik" tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma'no anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko'z o'ngiga ma'lum bir narsaning ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin. Lekin biz tadqiqotimizda kreativlikni, dars jarayonida berilgan vazifaga hech kimnikiga o'xshamas yo'l topish va uni ilmiy asoslay olish, yangicha fikrlash, uni tadbiq eta olish qobiliyati deb oldik. Kreativlik ijodkorlikka nisbatan kengroq tushuncha degan fikrga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022-yildagi PF-134-son
2. I.S.Xotamov, M.K.Olimov, G.R.Madrahimova, I.S.Foziljonov. Kreativ fikrlash. T.: "Innavatsion rivojlanish nashriyot matbaa ijodiy uyi" 2021.
3. Sh.S.Sharipov, K.Davlatov, G.S.Nasriddinova. Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik assoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007.
4. Adizov B. Boshlang'ich ta'limdi ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. –Toshkent, 2003.
5. I.S.Xotamov, M.K.Olimov, G.R.Madrahimova, I.S.Foziljonov. Kreativ fikrlash. O'quv qo'llanma - T.: "Innovatsiya – ziyo" 2022.